| <b>Хамдамов С. Ф.</b>                                                                                                                                                  |     |
| Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish.....                                                                                        | 562 |
| <b>Xasanova Nafisa Shavkatovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish.....                                                                  | 566 |
| <b>Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi</b>                                                                                                                             |     |
| Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar.....                                                           | 572 |
| <b>Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna</b>                                                                                                                                |     |
| Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari .....                                                                               | 578 |
| <b>Zikrillayev Jaxongir Sarvar o'g'li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich</b>                                                                                   |     |
| Infratuzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o'rni.....                                                                                                  | 583 |
| <b>Toyrova Amina Baxtisher qizi</b>                                                                                                                                    |     |
| Korxonalarda moliyaviy investitsion portfelni jalb qilish va rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili .....                                            | 588 |
| <b>Haydarov Humoyun Begmurod o'g'li</b>                                                                                                                                |     |
| Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar .....                                                                            | 592 |
| <b>K. Q. Tajibayev</b>                                                                                                                                                 |     |
| Бухгалтерский учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике .....                                                                              | 599 |
| <b>Камолова Феруза Кахрамоновна</b>                                                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....                                              | 603 |
| <b>Mirzayeva Lola Shavkatovna</b>                                                                                                            |     |
| Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni.....                                                                                     | 607 |
| <b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b>                                                                                                        |     |
| Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi.....                                                                                         | 612 |
| <b>Ruzmetova Gulira'no Atabekovna</b>                                                                                                        |     |
| Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va<br>qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari.....  | 620 |
| <b>Salixov Sherzod Abduxakimovich</b>                                                                                                        |     |
| Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish .....                                                               | 625 |
| <b>Xusanova Gulsum Baxtiyrovna</b>                                                                                                           |     |
| Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish .....                                                                   | 628 |
| <b>Ostonokulov Azamat Abduraimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich</b>                                                                 |     |
| Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi .....                                                    | 635 |
| <b>Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish<br>samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.....                       | 640 |
| <b>Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov</b>                                                                                                      |     |
| Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста.....                                                          | 644 |
| <b>Насиров Дилшод Фархадович</b>                                                                                                             |     |
| Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана .....                                                                   | 654 |
| <b>Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович</b>                                                                                                      |     |
| Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir.....                                                | 659 |
| <b>Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlari.....                                                                       | 664 |
| <b>Razzakov Jasur Xamraboyevich</b>                                                                                                          |     |
| Inflation and Unemployment: Evidence from Uzbekistan .....                                                                                   | 670 |
| <b>Mahmudov Nosir, Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi</b>                                                                                     |     |
| Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish .....                                             | 677 |
| <b>Meliqulov Abduhalil Norinovich</b>                                                                                                        |     |
| O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda<br>xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari ..... | 683 |
| <b>Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li</b>                                                                                                         |     |
| Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi.....                                                         | 689 |
| <b>Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna</b>                                                                                                         |     |
| Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari.....                                                               | 694 |
| <b>Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| The Importance of the World Trade Organisation (WTO) and Uzbekistan's Efforts to Join It.....                                                | 699 |
| <b>Urozaliev Elyor, Khoshimova Sevara</b>                                                                                                    |     |
| Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar.....                                                          | 705 |
| <b>Abduqaxorov Ulug'bek Abdug'aniyevich</b>                                                                                                  |     |
| Yangi O'zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari .....                                                     | 709 |
| <b>Tuxliyev Iskandar Suyunovich</b>                                                                                                          |     |
| Mahalliy soliqlar va yig'implarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni undirishning xususiyatlari .....                                         | 713 |
| <b>Tuychiyev Kamoliddin</b>                                                                                                                  |     |
| Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning<br>ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari .....         | 717 |
| <b>Yadgarov Nodir Ravshanovich</b>                                                                                                           |     |
| Organik qishloq xo'jaligiga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlar va iqtisodiy asoslari.....                                             | 723 |
| <b>Amirqulov Shuxrat Olimovich</b>                                                                                                           |     |
| Davlat xaridlari jarayonida e'tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari .....                                                   | 727 |
| <b>G'ofurov Temur Baxrom o'g'li</b>                                                                                                          |     |





|                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari .....                       | 730 |
| <b>Utkurov Kozimjon Dilmurod o'g'li</b>                                                                         |     |
| Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari .....             | 733 |
| <b>M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva</b>                                                             |     |
| Sug'urta faoliyatini takomillashtirishda andarrayting xizmatining o'rni .....                                   | 737 |
| <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b>                                                                          |     |
| O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari .....                     | 741 |
| <b>Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich</b>                                                                         |     |
| Kambag'allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo'naltirish .....                                         | 745 |
| <b>Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich</b>                                                                         |     |
| Yoqilg'i-energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari .....                     | 749 |
| <b>Xusanov Qaxramon Nishonovich</b>                                                                             |     |
| Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике .....                                              | 753 |
| <b>Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</b>                                               |     |
| Эффективность программ соответствия в различных компаниях .....                                                 | 757 |
| <b>Ахмедов Бехзод Ахмедович</b>                                                                                 |     |
| Элементы системы внутреннего контроля в выбранном финансовом институте .....                                    | 762 |
| <b>Хасанов Кахрамон Ахмаджанович</b>                                                                            |     |
| Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles .....                               | 767 |
| <b>Esanova Shohida Utkirovna</b>                                                                                |     |
| Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari ..... | 774 |
| <b>Madiyarov Sanjar Gulyamovich</b>                                                                             |     |
| Paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish .....              | 781 |
| <b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o'g'li</b>                               |     |



# SANOAT KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

**Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari, iqtisodiy mazmun-mohiyati, korxonalarning barqaror iqtisodiy o'sishi va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat, sanoat korxonalari, strategiya, muvozanat, barqaror muvozanati, talab va taklif, daromad, xarajat.

**Abstract:** This article describes the theoretical and methodological foundations of the sustainable development of industrial enterprises, the economic essence, the sustainable economic growth of enterprises and the theoretical views of foreign scientists.

**Key words:** industry, industrial enterprises, strategy, equilibrium, stable equilibrium, supply and demand, income, cost.

**Аннотация:** В данной статье описаны теоретические и методологические основы устойчивого развития промышленных предприятий, экономическая сущность устойчивого экономического роста предприятий и теоретические взгляды зарубежных ученых.

**Ключевые слова:** промышленность, промышленные предприятия, стратегия, равновесие, устойчивое равновесие, спрос и предложение, доход, затраты.

## KIRISH

Jahon mamlakatlarida kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va jarayonlar, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida bozor munosabatlarining rivojlanishining yangi mexanizmlarini shakllantirishga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Shu sababdan, ko'plab sanoat korxonalari o'zgarib borayotgan tashqi muhit sharoitlariga moslashuvchan bo'lgan investitsion strategiyalarini rivojlantirishga zarurat sezmoqdalar. Hozirgi sharoitda iqtisodiy salohiyatni tiklash zarurligi mazkur rivojlanishni ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirish asosida sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish uchun sharoit yaratishni birinchi o'ringa qo'yimoqda Korxonalar resurslari cheklanganligi, mavjud tashqi muhit sharoitida ularning barqaror rivojlanishiga zamin yaratish imkoniyatlarini beradigan strategiyani ishlab chiqish boshqaruvning asosiy muammosi shaklida namoyon bo'lmoqda. Bunda shuni ta'kidlash kerakki, har bir korxona uchun barqaror o'sish strategiyasini ishlab chiqish yakka tarzda amalga oshiriladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining taraqqiyoti – ularning barqaror iqtisodiy o'sishga ega ekanligi va turi xil ijtimoiy-iqtisodiy siljishlarga bardoshlilikiga bog'liq. Har bir sanoat korxonasi o'zining hisob siyosati, biznes rejasi, rivojlanish strategiyasi va investitsion siyosatiga ega va bular orqali o'zining taraqqiyot yo'lini belgilaydi.

Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining mazmun-mohiyati to'g'risida iqtisodchi olimlar o'rtasida xilma-xil fikrlar mavjud.

Gobind Nankani: "Barqaror o'sish bir qancha tayanch shartlarga asoslanadiki, ular vaqtida bajarilgan bo'lishi zarur: jismoniy va inson kapitalini jamg'arish, resurslarni samarali taqsimlash, yangi texnologiyalar va o'sishdan foydalanishda muvozanatli qatnashish. Bu shartlardan qaysinisi muayyan davrda eng muhimi hisoblanishi, ya'ni qaysi choralar qanday ketma-ketlikda ko'rilgan bo'lishi kerakligi ko'p jihatdan dastlabki sharoitga bog'liq. Buning oqibatida qat'iy formulalar va o'tkinchi "eng yaxshi amaliyot"larni izlashdan voz kechish hamda o'sishni cheklovchi omillarni aynan muvofiqlashtirish uchun chuqurlashtirilgan iqtisodiy tahlilga ishonish lozim"



(Nankani, 2005) degan g'oyani ilgari surgan. G.Nankaniga ko'ra, barqaror o'sishning tayanch shartlari quyidagilarni tashkil qiladi:

- jismoniy va inson kapitalini jamg'arish;
- resurslarni samarali taqsimlash;
- yangi texnologiyalar va o'sishdan foydalanishda muvozanatli qatnashish.

Ushbu shartlar korxonaning iqtisodining davrlari (o'sish, tushish, muvozanat)ga ko'ra ahamiyatlilik darajasi farqlanadi. Shuningdek, korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda uning moliyaviy holatidan kelib chiqib, iqtisodiy qarorlar qabul qilish zarur hisoblanadi. Misol uchun: korxona o'zining to'lov qobiliyatini (likvidlik darajasi) mustahkamlash uchun o'z mablag'larini miqdorini oshirishi mumkin. Yoki resurslardan samarali foydalanish uchun yangi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishi mumkin. Iqtisodiy o'sish davrida korxonaning mahsulotlariga bo'lgan talab yuqori bo'lgan pallada reklama berishga ehtiyoj sezilmagan davrda reklama xarajatlarni kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Yana bir muhim narsa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini ko'paytirish uchun inson kapitaliga investitsiya qilish zarurdir.

Iqtisodiy tizimlar umumiy muvozanati konsepsiyasi.

Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish konsepsiyasi iqtisodiy tizimlarning makro va mikro darajadagi xulq-atvorini tavsiflovchi klassik va hozirgi zamon tadqiqotlari tushunchalar tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida kechayotgan biznes-jarayonlarni tadqiq etishda "barqaror muvozanat" tushunchasi va u bilan bog'liq barqaror bozor iqtisodiyoti sharoitlari uchun o'rinli bo'lgan tushunchalarni yoritib berish ahamiyatlidir. "Muvozanat" tushunchasining mohiyati ko'plab tadqiqotlarda qo'llanilayotgan tahlil usullari va o'rganilayotgan sanoat korxonalarining darajasidan kelib chiqib, talqin qilinadi. Shu bilan birga bu tushunchaning taklif qilingan ma'nosi yetarlicha asoslanmagan. Bunda ko'p darajada sanoat korxonalarining barqaror rivojlantirish shartiga kiradigan vazifalarning xossalari tadqiqoti va xulosasiga urg'u beriladi. Natijada bugungi kunda iqtisodiy tizimning barqaror va muvozanatli holatining fundamental mazmuni to'g'risidagi masala ochiqlicha qolmoqda.

A.Marshall tomonidan taklif qilingan konsepsiyada bozor muvozanati talab va taklif tengligi bajarilishining aniq sharti sifatida ko'zda tutiladi (Alfred, 1993):

$$S = D \quad (1)$$

bu yerda:  $S = g(p)$  – taklifning "p" narxga bog'liqligini tavsiflaydigan vazifasi;  $D = f(p)$  – mahsulotga bo'lgan bozor talabini tavsiflaydigan talabning vazifasi. Qator iqtisodchilarning keyingi ishlarida (Arrow & Kenneth, 1991) (1) tenglamaning ma'nosini tushunishni chuqurlashtiradigan tadqiqotlar olib borilib, uning mazmuni, xo'jalik tizimining barqaror, muvozanatlashgan holatiga uning bozorga narxli moslashish bo'yicha harakatlari sinov va xatolari jarayonining chegarasi sifatida qarash lozim. Ularning dinamikasini quyidagi tenglama orqali tasvirlash mumkin:

$$\frac{dp}{dt} = h \cdot (S(p) - D(p)) \quad (2)$$

$h' < 0$ ,  $h(0)=0$  bo'lganda, bu yerda  $\frac{dp}{dt}$  – narxlarning o'zgarish tezligi;  $h' - h$  funksiyasining bozor dagi mahsulotlar, xizmatlar ortiqcha taklifi o'sishiga nisbatan o'zgarish tezligi (2) tenglama mahsulot, xizmatlarga bo'lgan talab taklifdan oshib ketgan, narxlar esa narx va taklif nisbati dan kelib chiqib, o'sgan yoki kamaygan vaziyat uchun talab va taklif qonunini tavsiflaydi. (1) va (2) tenglamalar birgalikda biznes-jarayonlar dinamikasini tavsiflab, ularda talab, taklif va narxlar o'zining ayrim cheklangan miqdoriga erishganligi bilan bog'liq barqaror bo'lmaguncha o'zgaradi. Shuni ta'kidlash muhimki, agar (1) tenglik bajarilsa, u holda narx o'zgarmaguncha qoladi va buning oqibatida talab va taklif ham narx funksiyasi kabi doimiyligicha qoladi. Demak,  $S$ ,  $D$ ,  $p$  cheklangan miqdorlarga erishganda, ularning o'zgarishini keltirib chiqaradigan ta'sirlar yo'qoladi. Bunda korxona tizimi muvozanat holatiga erishadi va ta'sirlarni tiyib turadigan tashqi muhit mavjud bo'lmaganda, unda yetarli darajada uzoq vaqt qolib ketish mumkin bo'ladi.

Pol Samuelson, Kennet Errou, Geonid Gurvis asarlarida (Hurwicz, 1986) turli tuman empirik hodisalarni modelashtirish orqali xo'jalik tizimlarini barqaror rivojlantirish mexanizmlaridan foydalanishning ayrim xususiyatlari o'rganilgan. Biroq yuqori darajada sanoatlashgan iqtisodiyotda sanoat majmuasi korxonalariga tatbiqan "iqtisodiy muvozanat" tushunchasining mazmuni to'la ochilmagan.

S.Fisher, R.Dornbush va R.Shmalenzi (Fischer, et al., 1995) ham yalpi talab va yalpi taklif tengligi kabi muvozanatli holatni aniqlaydi, ya'ni mavjud narxlar darajasida taxmin qilinayotgan mahsulot miqdori yalpi talab yoki rejalashtirilayotgan yalpi xarajatlarga teng bo'lganda, tovarlar bozori muvozanat holatida bo'ladi. Bunda xo'jalik tizimining muvozanatli holati tenglamasi quyidagicha aniqlanadi:

$$AD(C + I) = AS \times (Q \times P)^3 \quad (3)$$

bu yerda: AD – yalpi talab; C – iste'mol talabi; I – investision talab; AS – yalpi taklif; Q – natural mahsulot ishlab chiqarish hajmi; P – mahsulot birligining narxi.

Iqtisodiy o'sish makrodarajadagi tadqiqotining uslubiy asosini Y.Shumpeter, N.Kondratev, D.Bell, E.Denison, J.Keyns, K.Klark, D.Nort, R.Solou, F.Xayek va boshqa olimlar (Клинов, 2010) ishlab chiqqanlar. Ular yalpi ichki mahsulotning zaruriy o'sish sur'atlari saqlanib qolganda, makrodarajada muvozanat holatiga erishish mumkin, bunda iqtisodiyotning barqaror muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydigan o'sish sur'atlarini quyidagi formula bo'yicha hisoblash zarur, degan xulosaga kelganlar:

$$\Delta GDP_t = \frac{VA_t}{CF_{t-1}} \times \frac{CF_{t-1}}{GDP_{t-1}} \times 100\% \quad (4)$$

bu yerda  $\Delta$  – foizlarda ifodalangan o'sish sur'atlari; t – hisobot davri; (t-1) – oldingi davr; GDP – yalpi ichki mahsulot; VA – qo'shilgan mahsulot (YalM o'sishi); CF – asosiy kapitalga qo'yilmalar; VA/CF – asosiy kapitalga qo'yilmalardan qaytim me'yori; CF/GDP – asosiy kapitalni shakllantirishga YalM ni sarflash me'yori.

Xo'jalik tizimining mikrodarajadagi xulq-atvorini tadqiq etishda muvozanat konsepsiyasi ba'zi maqsadli funksiyalar maksimumiga erishishi bilan bir xil va biznes jarayonlarni optimallashtirish muammolarining hal qilinishi bilan bog'liq bo'ladi, deb qaraladi. Mazkur konsepsiya doirasida iste'molchi muvozanati uning nafililik funksiyasi maksimumiga yetganda namoyon bo'ladi, xo'jalik tizimining muvozanati esa uning faoliyati natijalarini tavsiflaydigan foyda yoki boshqa ko'rsatkichlarning maksimumida ko'rinadi. Alohida tashkilot va butun iqtisodiyot muvozanati shartlaridagi asosiy tafovut shundaki, makrotizimning muvozanat holati mikrodarajadagi tizimdan farq qilib, ichki qarama qarshi yo'naltirilgan muvaffaqiyat omillarining o'zaro ta'siri va muvozanatlashtirilishi obyektiv mexanizmi hisobiga erishiladi hamda subyektiv maqsad qo'yilishi jarayoni bilan bog'liq emas. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy tizim muvozanati konsepsiyasining mazmunini tadqiq etish uchun:

- a) muvozanat holati asosiy tavsiflarini ajratish;
- b) uning umumlashtirilgan tizimli tushunchasini shakllantirish;
- d) turli darajadagi iqtisodiy tizimlar uchun uning namoyon bo'lishining o'ziga xosligini tahlil qilish zarur.

Turli darajadagi iqtisodiy tizimlarning amal qilish va rivojlanish omili hisoblangan iqtisodiy tizimning maqsadli determinasiyasi tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda maqsadli determinasiyalashning kengaytirilgan talqinini qo'llash zarur, ya'ni "tizimni maqsadli determinasiyalash" tushunchasi orqali uning boshlang'ich sharoitlari va rivojlanish ichki mexanizmlaridan shakllanadigan iqtisodiy tizimning birmuncha kelgusi holatini tushunamiz. Amaldagi mexanizmlar tizim xulq-atvorining berilgan yo'nalishini belgilab, uning oxirgi holati ham izlanayotgan muvozanat holati hisoblanadi. Iqtisodiy tizim xulq-atvorining maqsadga yo'naltirilganligida, tizimga muvozanatli ta'sir ko'rsatish sohasida bu ta'sirni qoplashga urinayotgan qarama-qarshi jarayonlardan iborat teskari aloqa tamoyili namoyon bo'ladi. Maqsadli determinasiyalashni tushunish turli darajadagi iqtisodiy tizimlar uchun muvozanatlilikning mazmunini o'rganish va muvozanat holatining sermazmun tizimli konsepsiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan bog'liq ravishda, maqsadga yo'naltirilgan tizimning mazmunini tavsiflash muhim bo'lib, buning uchun funksional invariant konsepsiyasidan foydalaniladi. Bunda "funktional invariant" (o'zaro bog'liq va qarama-qarshi ko'rinishlar)ni raqobat sharoitida xo'jalik tizimining amal qilishi jarayonida o'z ahamiyatini saqlayotgan ko'rsatkichlar majmui sifatida ta'riflash mumkin. "Maqsadli determinasiyalash (aniqlashtirish)" ko'rsatkichi korxonani rivojlantirish yo'nalishining o'zgarishi bilan bog'liq xo'jalik tizimining ko'plab ko'rsatkichlarining amal qilishini tavsiflaydi. U daromad, xarajatlar, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining hajmi, qo'llanilayotgan aktivlar majmui va h.k.larni o'z ichiga oladigan o'zgaruvchilar to'plami bilan belgilanadi. Demak, o'zaro bog'liq ko'rinishlardan foydalanish makro va mikro darajadagi iqtisodiy tizimlarni birlashtiradigan umumiylikni ajratish imkonini beradi, hamda ular tomonidan muvozanat holatiga erishish asosida yotadi, binobarin, mazkur umumiy xossa sifatida maqsadga yo'naltirilganlik chiqadi.

## TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, shuningdek abstraksiyalash, gruxlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, boshqa uslublardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


Xo'jalik subyekting iqtisodiy barqarorligi iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilangan bo'lib, uning doirasida korxona faoliyati, uning faoliyati natijalari hamda sanoat mahsuloti (xizmatlari)ni bozor talablariga moslashtirish amalga oshirilishini qayd etamiz. Shu bois, bozor muhiti korxonaning samarali faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan risklarni vujudga keltiradi. Korxona barqarorligi turlari juda ko'p bo'lib, ularning asosiylari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Sanoat korxonasining barqarorligining turlari

Sanoat korxonasining barqarorligi, eng avvalo, ishlab chiqarish xarajatlari bilan uzviy bog'liqlikda ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlarning tarkibi va tuzilishiga bog'liqdir. Shuning uchun doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi nisbat katta ahamiyat kasb etadi. Korxona barqaror rivojlanishini shakllantirishning boshqa muhim omili aktivlarning optimal tarkibi va tuzilishi hamda ularni boshqarish strategiyasini to'g'ri tanlash hisoblanadi. Bunda joriy aktivlarni boshqarish san'ati korxona hisobida joriy tezkor faoliyat uchun zarur bo'lgan likvid mablag'larning eng kam zaruriy summasinigina ushlab turishdan iborat. Korxona moliyaviy muvozanati va iqtisodiy barqarorligiga ssuda kapitallari bozorida qo'shimcha ravishda harakatlantiriladigan mablag'lar ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi, ya'ni korxona qanchalik ko'p pul mablag'larini jalb qilishi mumkin bo'lsa, uning moliyaviy imkoniyatlari shunchalik katta bo'ladi. Biroq korxonaning o'z kreditorlariga to'lovlarni o'z vaqtida to'lash layoqatini belgilaydigan risk ham o'sadi. Uzlusiz takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash va likvidlikning yetarli darajasiga erishish yo'li bilan iqtisodiy muvozanatni ushlab turish maqsadida sanoat korxonasi hisoblarida pul mablag'larining yetarli hajmini yaratish lozim. Bunda operasion sikl dinamikasi korxona likvidligini qo'llab-quvvatlash va uning pulga bo'lgan talabini joriy faoliyati, ya'ni aylanma aktivlar va ularni moliyalashtirish jarayonini boshqarishga tegishli qismida amalga oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Korxona barqaror rivojlanishi jarayonini ta'minlash, ya'ni amal qilish jarayonida barqarorlikka rioya qilinadigan sifat jihatdan yangi darajaga o'tish uchun korxonaga ta'sir ko'rsatishning majmuaviy xususiyati xos bo'lgan rivojlanish yetakchi omilini aniqlash hamda mazkur omildan foydalanish asosida barqaror rivojlanish jarayonini boshqarish majmuaviy tizimini ishlab chiqish zarur. Korxonani rivojlantirish yetakchi omili sifatida innovasiya salohiyati asosida amalga oshiriladigan innovasion islohotlarni ajratish mumkin. Bunda ta'kidlash joizki, innovasion salohiyat darajasi korxonaning yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish va o'zlashtirish layoqati, bundan tashqari, bir tomondan, boshqa tomondan esa innovasiya jarayonida barqarorlikning saqlanishi va doimiy amal qilishining shartini belgilaydi.

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida korxona tegishli siyosatni ishlab chiqadiki, quyidagilar uning asosiy bosqichlari hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm: Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bosqichlari





Sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligining tadqiqoti korxona joriy faoliyati asosiy turlari va bu jihatdan ularning qo'llanilishini o'rganishni ko'zda tutadi. Bu sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini taminlash va uni umumtuzim nuqtai nazaridan aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, innovasion va investitsion faollik asosida barqaror rivojlanishni boshqarishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli innovasion va investitsion islohotlarni amalga oshirish sanoat korxonalari strategik barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim yetakchi omili sifatida namoyon bo'ladi. Buning uchun korxonalarda mahalliy xom ashyodan foydalanib, qayta ishlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish, korxonalar tomonidan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ko'maklashish, ularning innovasion tadqiqotlarni davlat bilan sheriklikda rag'batlantirishdagi ishtirokini kengaytirib borish hamda yuqori texnologiyali tarmoqlarda kichik korxonalarni tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning hammasi ular faoliyatining raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday sanoat korxonasi barqaror rivojlanishga ega bo'lishni istaydi va erishish yo'lari va imkoniyatlarini izlaydi. Bu yo'lda sanoat korxonalari o'zlari ishlab chiqarayotgan sanoat mahsuloti va ko'rsatayotgan xizmatlarining tarkibiy tuzilishidan kelib chiqqan holda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga to'g'ri keladi. Boshqaruv qarorlarining qaydarajda asosli va mantiqiylik muhim ahamiyatga ega. Qabul qilingan boshqaruv qarorlari sanoat korxonalari yaqin va uzoq muddatdagi korxona faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sanoat korxonalari barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri bu – moliyaviy hisobotlarning tushunariligi, aniqliligi, asoslanganligi, ishonchiligi va milliy va xalqaro standartlarga mosligidir. Chunki, qaror qabul qiluvchilar qarorlarini ushbu moliyaviy ko'rsatkichlar asosida qabul qilishadi.

Har qanday barqaror rivojlanishni istagan korxona o'zining rivojlanish strategiyasiga, yo'l haritasiga ega bo'lishi lozim. Bularga ega bo'lish uchun o'zlarining hisob siyosati, biznes rejasi va investitsion-innovatsion siyosatiga, aktiv-passiv siyosatiga ega bo'lishi darkor. Qayerdan qayerga borishni va qanday borishni bilmay yo'lga chiqqan har qanday "yo'lovchi" manzilidan adashganidek, korxonalar ham raqobatli iqtisodiyot sharoitida o'zlarining raqobatchilari bilan raqobatlasha olish imkoniyati pasayadi yoki raqobatlasha olmaydi. Natijada to'lov qobiliyatining yo'qolishi ortidan bankrot deya e'lon qilishlariga to'g'ri kelishi mumkin.

Bugungi kunda korxonalar yuqori texnologiyalarni jalb qilish orqali o'z mahsulot va xizmatlarini hajmini intensiv rivojlantirishmoqda. Bunga esa mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali erishmoqdalar.

Shuningdek, sanoat korxonalari investitsiya jalb qilibgina qolmasdan, o'zlari ham bo'sh pul mablag'larini qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarga joylashtirishmoqda. Bu esa investitsion faoliyatdan oladigan daromadlarining oshishiga olib keladi. Korxona daromadlarining ortishi uning barqaror rivojlanishini belgilovchi omillardan biridir.

Korxonalar xarajatlarini optimallashtirishi va ularning nazoratini doimiy olib borishi zarur. Debitorlik qarzlari muddatidan o'tib ketmasligini ta'minlashi va kreditorlik qarzlari o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash uchun fondlarni shakllantirishi kerak.

Korxonalar doimiy tarzda bozor holatini, o'z mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganishlari mahalliy va xorijiy bozorlarda mustahkam o'rin egallashga harakat qilishlari va marketing strategiyalarini ishlab chiqishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alfred, M., 1993. Principles of economic science. t-2 ed. M: "Progress".
2. Arrow, J. & Kenneth, A., 1991. Toward a theory of price adjustment. Studies in Resource allocation processes.. Cambridge: s.n.
3. Fischer, S., Dornbush, R. & Shmalenzi, R., 1995. Economy: Trans. with the Engl.. M: "The metter LTD".
4. Hurwicz, L., 1986. On the Stability of the Tatonnement Approach to Competitive Equilibrium. Sonnenschein: "Modeles of Economic Dynamics".
5. Nankani, G., 2005. Economic Growth in the 1990s :Learning from a decade of reform, Washington, D.C.: World Bank.
6. Клинов, В., 2010. Особенности современной динамики мирового хозяйства. s.l.: "Вопросы экономики".

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.